XALQ DEPUTATLARI ARNASOY TUMANI KENGASHI
QARORI

2023 - yil 29 - dekabr VI-50-144-3-43-K/23 Arnasoy tuman hokimligi

Arnasoy tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6-va 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-son qonuniga muvofiq hamda Jizzax viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 27-dekabrdagi 01-20-08-01-33/419-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari Arnasoy tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi 2023-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-886-son qonuni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-son qonuni, xalq deputatlari Jizzax viloyat Kengashining 2023-yil 29-dekabrdagi VI-50-301-3-0-K/23-sonli qarori hamda Jizzax viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023-yil 27-dekabrdagi 01-20-08-01-33/419-sonli xatiga asosan tuman mahalliy byudjetining daromadlari 35 542,5 mln.so‘m, xarajatlari 88 203,4 mln.so‘m miqdorda, mazkur qonunning 1-ilovasiga muvofiq respublika byudjetidan tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan transfertlar 52 660,9 mln.so‘m miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yilda:

a) Quyidagi soliq turlari to‘liq tuman mahalliy byudjetida qoldiriladi:

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

- jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

- jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

- yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan, shuningdek jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i;

- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

- aylanmadan olinadigan soliq;

- jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan, shuningdek jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari)

- davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari;

b) Viloyat va tuman mahalliy byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

- yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq;

- yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

- elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

- benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i;

- qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

- xususiylashtirishdan tushum

v) Viloyat byudjetiga quyidagilar to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

- aylanmadan olinadigan soliq;

- qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

- qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan jarimalar;

- ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

- qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlar, avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish yig‘imi va g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan tashqari);

- qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

- davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga (ijaraga) berishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar;

- mobil aloqa xizmatlari, tamaki va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlar tegishincha 2023-yilning 1-iyul holatiga ko`ra tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq;

- foyda solig‘i (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari)

4. Tuman mahalliy byudjetining 2024-yil daromadlar rejasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tumanning byudjet daromadlar prognoz ko‘rsatkichlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Tuman byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar me’yorlari 3-

ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Bunda, ajratma me’yorlari bo‘yicha viloyat mahalliy byudjeti bilan tuman mahalliy byudjetining taqsimotini o‘rnatilgan tartibda tuman g‘aznachilik xizmati bo‘limi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo‘yilsin.

7. Ushbu qarorning 4-ilovasiga muvofiq tuman mahalliy byudjetining 2024-yil uchun daromadlari va xarajatlarining chegaraviy hajmlari ma’lumot uchun qabul qilinsin hamda respublika byudjetidan tuman mahalliy byudjetlariga o‘tkaziladigan tartibga soluvchi transfertlar miqdori tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini tuman byudjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi belgilansin.

8. 2024-yil uchun tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 1,0 foiz miqdorida belgilansin.

Tuman byudjetining 2024-yil uchun zaxira jamg‘armalari tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan tuman byudjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirishga doir mablag‘lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

qonunning 8-moddasiga muvofiq zaxira jamg‘armalari mahalliy byudjetlarning tasdiqlangan xarajatlarining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilishi belgilanganligidan kelib chiqib, 2024-yil uchun tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 784,7 mln.so‘m miqdorida 5-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Tuman hokimligi zaxira jamg‘armalari mablag‘larini tuman byudjeti parametrlarida ko‘zda tutilmagan, kechiktirib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun ajratilishi ta’minlansin.

9. Tuman hokimligi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish loyihalarini ishlab chiqish jarayoniga aholini faol jalb etish hamda joylardagi dolzarb muammolarni hal etishda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish maqsadida tashkil etilgan “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga mahalliy byudjetining 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so‘m mablag‘ rejalashtirilish hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning kamida 30 foizi jamoatchilik fikri asosida

shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari, byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan obyektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10-sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

10. 2024-yil uchun tuman byudjetining yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lari miqdori 6-ilovaga muvofiq belgilansin.

11. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining mustaqilligini yanada oshirish uchun 2024-yilda ham qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun bazaviy soliq stavkasidan kelib chiqib tuman kesimida Xalq deputatlari tuman Kengashi hududning iqtisodiy rivojlanishiga qarab yer solig‘i stavkasiga 0,7 dan 3,0 gacha miqdorda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 7-ilovaga hamda jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga 0,5 dan 2,0 gacha miqdorda kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 8-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

12. Qonunning 2-ilovasida ko‘rsatilgan tuman mahalliy byudjetining daromadlar prognoz ko‘rsatkichlari mahalliy hokimiyatlarning faoliyatiga bog‘liq bo‘lmagan holda 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmasa va moliya yili oxirigacha ushbu mablag‘larning tushish ehtimoli bo‘lmasa, tuman hokimligi viloyat hokimligiga xarajatlarni maqbullashtirish yuzasidan takliflari bilan birga tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorini oshirish bo‘yicha murojaat qilishi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

13. Tuman hokimligi tashabbusi bilan qo‘shimcha ravishda amalga

oshiriladigan tadbirlar uchun talab etiladigan mablag‘lar tegishliligi bo‘yicha ushbu mahalliy byudjetlarning ijrosi davomida shakllangan qo‘shimcha manbaa mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi qat’iy belgilab qo‘yilsin.

14. Tuman hokimligi tegishli byudjetni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirsin.

15. Byudjet ijrosining ochiqliligini ta’minlash maqsadida byudjet mablag‘i taqsimlovchilari;

har chorak yakuni bilan keyingi chorak birinchi oyining 25-sanasiga qadar rasmiy veb-saytlarga o‘z tasarrufidagi byudjet tashkilotlari kesimida mablag‘lar taqsimotini, moliyaviy hisobotlarni, kapital qo‘yilmalar hisobidan amalga oshirilayotgan loyihalarning ijrosini, o‘tkazilgan tanlov (tender) savdolari va davlat xaridlari hamda boshqa tegishli ma’lumotlarni joylashtiradi.

Tuman davlat soliq inspeksiyasi taqdim etilgan soliq imtiyozlarining miqdori to‘g‘risidagi ma’lumotlarni soliq to‘lovchilari kesimida o‘z rasmiy veb-saytlariga har chorak yakunlariga ko‘ra, chorakdan keyingi oyning 25-sanasidan kechiktirmay joylashtirsin.

Tuman iqtisodiyot va moliya bo`limi byudjet tashkilotlari va byudjet mablag‘lari oluvchilar kesimida tuman mahalliy byudjetidan ajratiladigan mablag‘lar va ularni ijrosi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z rasmiy veb-saytlariga har chorak yakunlariga ko‘ra, chorakdan keyingi oyning 25-sanasidan kechiktirmay joylashtiradi.

16. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Z.Ismatov, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (M.Eshboyev), tuman davlat soliq inspeksiyasi (X.Umurov)lar 2024-yildagi byudjet-soliq siyosatidagi o‘zgarishlar, soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasinlar.

17. Qaror rasmiy nashrlarda e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

18. Mazkur qaror “Arnasoy tongi” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining arnasoy.uz rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

19. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman Kengashining “Mahalliy

byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari” doimiy komissiyasi zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **X.Alimardanov**

Xalq deputatlari Arnasoy tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-50-144-3-43-K/23-son qaroriga
1-ilova

Arnasoy tuman mahalliy byudjetlarining 2024-yil daromadlari rejasi

ming so‘mda

Hudud nomi	**Jami daromad**	**shundan**		**Shundan**	
		O‘tkazib beriladigan daromad (Aksiz mobil, tamaki va alkogol)	**soliq rejasi**	**shahar va tumanlar mahalliy byudjetiga ajratma qilinadigan daromadlar miqdori**	**viloyat mahalliy byudjetiga ajratma qilinadigan daromadlar miqdori**
Arnasoy tumani	39 412 502,0	8 274 502,0	31 138 000,0	27 268 000,0	3 870 000,0

Xalq deputatlari Arnasoy tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-50-144-3-43-K/23-son qaroriga
2-ilova

Arnasoy tumani mahalliy byudjetining daromadlarining

2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

ming so‘mda

T.r.	Daromad turlari	Kontingent	Mahalliy
Aksiz solig‘i bilan jami daromad		**31 138 000,0**	**35 542 502,0**
Daromad jami		**31 138 000,0**	**27 268 000,0**
1	YaTT uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	0,0	0,0
2	Korxonalar aylanmasidan soliq	1 498 000,0	0,0
3	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 580 000,0	1 580 000,0
4	*Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i*	2 100 000,0	2 100 000,0
5	*Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq*	2 808 000,0	2 808 000,0
6	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	43 000,0	43 000,0
7	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	18 258 000,0	18 258 000,0
8	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	687 000,0	687 000,0
9	Aksiz solig‘i (benzin, dizel, gaz)	328 000,0	328 000,0
10	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	493 000,0	493 000,0
11	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i	921 000,0	921 000,0
12	Davlat boji	1 116 000,0	
13	Yig‘imlar	321 000,0	
14	Jarimalar	874 000,0	
15	DUK soy foydasidan ajratmalar	11 000,0	
16	Xususiylashtirishdan tushum	100 000,0	50 000,0
17	Boshqalar	0,0	
18	Respublika byudjetidan o‘tkazib beriladigan daromadlar	0,0	8 274 502,0
	shu jumladan:		

	Aroqdan aksiz solig‘i (shu jumladan pivo)	0,0	3 586 727,0
	Mobil aloqa xizmatidan aksiz solig‘i	0,0	1 444 741,0
	Tamaki aksiz solig‘i	0,0	3 243034,0

Xalq deputatlari Arnasoy tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-50-144-3-43-K/23-son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan shahar va tumanlar mahalliy byudjetlariga ajratmalar me’yori

Foiz hisobida

T.r	Tuman nomi	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	Yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i (qatiy belgilangan soliq)	Jismoniy shaxslar yer solig‘i	Jismoniy shaxslar mol-mulk solig‘i	Xususiylashtirishdan tushum	Ijara to‘lovi	Aksiz solig‘i: - benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	Yuridik shaxslar yer solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Boshqalar
1	Arnasoy tumani	100	100	100	100	100	50	100	100	100	100	100	100

Xalq deputatlari Arnasoy tuman Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-50-144-3-43-K/23-son qaroriga
4-ilova

Arnasoy tuman mahalliy byudjetining 2024-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	**Jami daromadlar**	**shundan**			**Mahalliy byudjet xarajatlari**
		Mahalliy byudjet daromadlar	**O‘tkazib beriladigan daromad (Aksiz mobil, tamaki va alkogol)**	**Tartibga soluvchi transfert miqdori**	
Arnasoy tumani	88 203 386,0	27 268 000,0	8 274 502,0	52 660 884,0	88 203 386,0

Xalq deputatlari Arnasoy tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-50-144-3-43-K/23-son qaroriga
5-ilova

2024-yilgi Arnasoy tumani mahalliy byudjeti mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Tuman byudjeti
Xarajatlar miqdori, Jami		**88 203 386**
	shu jumladan:	
1.	**Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limi**	**7 781 737**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	7 781 737
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2.	**Xalq ta’limi bo‘limi**	**6 990 401**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	6 990 401
	shundan:	
3.	**Sog‘liqni saqlash bo‘limi**	**30 424 703**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	30 424 703
	shundan:	
	Sog‘liqni saqlash muassasalari saqlash xarajatlari	30 424 703
4.	**Madaniyat sohasi**	**2 081 944**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	**2 081 944**
	shundan:	
	Madaniyat bo‘limi saqlash xarajatlari	124 162
	Madaniyat markazi saqlash xarajatlari	649 164
	Musiqa va san’at maktabi saqlash xarajatlari	1 308 618
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5.	**Yoshlar siyosati va sport bo‘limi**	**5 762 454**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	5 762 454
	shundan:	
	Sport maktab saqlash xarajatlari	4 338 838
	Yoshlar ishlari Agentligi saqlash xarajatlari	1 423 616
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6.	**Qishloq xo‘jaligi tashkilotlari**	**1 598 130**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 598 130
	shundan:	

	Fermer xujaliklarida buxgalteriya xisobi va hisobotini yuritish markazi saqlash xarajatlari	493 575
	Veterinariya bo‘limi saqlash xarajatlari	1 104 555
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7.	**Irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi**	**897 691**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	897 691
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8.	**Soliq inspeksiyasi**	**2 904 467**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 904 467
	shundan:	
9.	**Iqtisodiyot va moliya bo‘limi**	**1 880 016**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 880 016
	shundan:	
10.	**Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi**	**2 854 323**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 854 323
	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	2 081 670
	Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi	772 653
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
11.	**Davlat hokimiyat organlari**	**25 027 520**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	25 027 520
	shundan:	
	Tuman hokimligi saqlash xarajati	3 628 324
	Obodonlashtirish boshqarmasi saqlash xarajatlari	6 452 408
	Ichki yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari	4 000 000
	Ijtimoiy moslashuv (ko‘nikma) markazi	58 789
	Xalq qabulxonasi saqlash xarajati	53 541
	Xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati	246 452
	Axborot va kutubxona markazi	575 780
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	8 942 288
	Mahalla byudjeti	285 175
	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	0
	Zaxira jamg‘armasi	784 763
	Ijtimoiy nafaqalar	0
	obyektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruksiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Xalq deputatlari Arnasoy tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-50-144-3-43-K/23-son qaroriga
6-ilova

Arnasoy tuman mahalliy byudjetlarida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori

ming so‘m

T.r.	**Hudud nomi**	**Miqdor**
1.	Arnasoy tumani	298 000,0

Xalq deputatlari Arnasoy tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-50-144-3-43-K/23-son qaroriga
7-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T.r.	**Hududlar**	**Koeffitsiyent (0,7 dan 3 gacha)**	**Yer solig`ining stavkasi 2024-yil uchun (mln.so`m)**
1	***2***	***3***	***4***
1	G ‘oliblar MFY	0,83	34,4
2	O.Vodiy MFY	0,83	34,4
3	Bobur MFY	0,83	34,4
4	G‘.G‘ulom MFY	0,83	34,4
5	Bo‘ston MFY	0,73	30,2
6	Cho‘lquvar MFY	0,73	30,2
7	Tinchlik MFY	0,73	30,2
8	Do‘stlik MFY	0,73	30,2
9	Gulbahor MFY	0,73	30,2
10	Zarafshon MFY	0,73	30,2
11	Baxtli MFY	0,73	30,2
12	Yangibo‘ston MFY	0,73	30,2
13	Chinobod MFY	0,73	30,2

Xalq deputatlari Arnasoy tuman
Kengashining
2023-yil 29-dekabrdagi
VI-50-144-3-43-K/23-son qaroriga
8-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo`jaligiga mo`ljallangan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.metr uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar

T.r.	Hududlar	Koeffitsiyent (0,5 dan 2 gacha)	Yer solig`ining stavkasi 2024-yil uchun (so`m)
1	*2*	*3*	*4*
1	G‘oliblar MFY	0,95	288,80
2	O.Vodiy MFY	0,85	258,40
3	Bobur MFY	0,95	288,80
4	G‘.G‘ulom MFY	0,85	258,40
5	Bo‘ston MFY	0,75	228,00
6	Cho‘lquvar MFY	0,70	212,80
7	Tinchlik MFY	0,70	212,80
8	Do‘stlik MFY	0,70	212,80
9	Gulbahor MFY	0,70	212,80
10	Zarafshon MFY	0,70	212,80
11	Baxtli MFY	0,70	212,80
12	Yangibo‘ston MFY	0,75	228,00
13	Chinobod MFY	0,70	212,80